

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

SIYOSIY FANLAR

DEMOKRATIK JARAYONLARDA ELEKTORAL MADANIYATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Elmurodov Faxriddin Farxodovich

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi

Markaziy Kengashi Boshqarma boshlig'i, mustaqil izlanuvchi

Email: elmurodov.fakhriddin@mail.ru

Tel: +998 99 848 67 12

ORCID: 0009-0008-1613-1781

Annotatsiya. Mazkur maqolada demokratik jarayonlarda elektoral madaniyatning o'rni va ahamiyati O'zbekistondagi siyosiy-huquqiy islohotlar kontekstida tahlil qilingan. Elektoral madaniyatni huquqiy meyorlar va jamiyat qadriyatlarini o'rtasidagi "ko'priq" sifatida baholab, uning saylovchilarning anglangan ishtiroki, siyosiy ishonch va dezinformatsiyaga qarshi immunitetini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada saylov tizimining raqamlashtirilishi, "Elektron saylov" tizimining joriy etilishi va 2024 yildagi parlament saylovlari tajribasi asosida elektoral madaniyatni yuksaltirishning strategik yo'nalishlari, jumladan, tizimli fuqarolik ta'limi va siyosiy ijtimoiylashuv masalalari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: demokratiya, elektoral madaniyat, saylov tizimi, siyosiy ishonch, Saylov kodeksi, raqamli transformatsiya, anglangan ishtirok, siyosiy ijtimoiylashuv.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF ELECTORAL CULTURE IN DEMOCRATIC PROCESSES

Elmurodov Faxriddin

Head of the Department

of the Uzbekistan People's Democratic Party, independent researcher

Annotation. This article analyzes the role and importance of electoral culture in democratic processes in the context of political and legal reforms in Uzbekistan. Electoral culture is assessed as a "bridge" between legal norms and societal values, and its role in shaping voters' informed participation, political trust, and immunity against disinformation is analyzed. The article analyzes the digitization of the electoral system. Based on the experience of the 2024 parliamentary elections, the article scientifically substantiates strategic directions for enhancing electoral culture, including systematic civic education and political socialization, through the implementation of the "Electronic Voting" system.

Key words: democracy, electoral culture, electoral system, political trust, Electoral Code, digital transformation, perceived participation, political socialization.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n46>

Kirish. Bugungi kunda dunyoning demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatlarida saylovlar davlat hokimiyatini shakllantirish va xalq irodasini namoyon etishning eng muhim instituti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi belgilab qo'yilgan bo'lib, bu fuqarolarning davlat boshqaruvidagi bevosita va bilvosita ishtirokini kafolatlaydi. Biroq, demokratik saylovlar nafaqat mukammal huquqiy baza va texnik mexanizmlarga, balki jamiyat a'zolarining siyosiy ongi va madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan, elektoral madaniyat tushunchasi demokratik jarayonlarning barqarorligini ta'minlovchi markaziy omil sifatida namoyon bo'ladi. Elektoral madaniyat — bu shunchaki ovoz berish ko'nikmasi emas, balki fuqarolarning siyosiy huquqlarini anglashi, saylov qonunchiligi bo'yicha bilimlari va jamiyat taqdiri uchun mas'uliyatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisadir.

Mazkur tadqiqotda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy islohotlar, xususan, Saylov kodeksining qabul qilinishi va saylov jarayonlarining raqamlashtirilishi sharoitida elektoral madaniyatning o'rnini tahlil qilindi. Shuningdek, saylovchilarning siyosiy ijtimoiylashuvi, siyosiy ishonch va axborot muhitining fuqarolik pozitsiyasiga ta'siri kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Zero, yuksak elektoral madaniyat saylovlarni oddiy marosimdan davlat va jamiyat o'rtasidagi konstruktiv muloqot mexanizmgiga aylantirishning bosh mezonidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Elektoral madaniyatni shakllantirish va uning demokratik jarayonlardagi roli masalasi siyosatshunoslik hamda ijtimoiy fanlarda turli konseptual yondashuvlar asosida tadqiq etib kelingan. Mazkur muammoning nazariy asoslari xorijiy olimlardan I.Shumpeterning demokratik raqobat va saylovlar orqali hokimiyat almashinuvi haqidagi qarashlarida, shuningdek, MDH olimlaridan R.F.Turovskiyning elektoral jarayonlarning mintaqaviy va konseptual asoslariga doir tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda elektoral madaniyatning jamiyat hayotida tutgan o'rnini, fuqarolarning siyosiy tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish masalalari M.Bo'riyeva, N.Boymurodov, M.A.Maxsudova kabi olimlar tomonidan psixologik va nazariy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston yoshlarining elektoral madaniyati va siyosiy ijtimoiylashuvi masalalari G.Jiyanmuratovning tadqiqotlarida, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va siyosiy ong muammolari esa A.Jalilov, U.Muhammadiyev va Q.Jo'rayevlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Siyosiy madaniyat va saylov institutining rivojlanishi borasida B.To'ychiyev, B.Omonov va B.Olimovlarning ilmiy izlanishlari hamda M.Hojimirzayevning siyosatshunoslikka oid metodik qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili elektoral madaniyatni shakllantirish davlatning institutsional islohotlari va fuqarolik jamiyatining siyosiy faolligi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik natijasi ekanini ko'rsatdi. Mazkur nazariy yondashuvlar tadqiqot metodologisini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil. Demokratiyaning asosiy tamoyillari - teng huquqlilik, erkin, demokratik saylovlar, hur fikrlilik, siyosiy plyuralizm (har xillik), kuppartiaviylik, hokimiyatning saylab qo'yilishi va xalq oldida hisobdorligi, ozchilikning kupchilikka bo'ysunishi, ozchilikning fikrini inobatga olishdir [1; B.220.]. Fuqarolar davlat hokimiyatini shakllantirishda demokratik tamoyillar asosida saylovlar va saylov institutlari orqali amalga oshiradi.

Demokratiyaning eng asosiy mezoni sifatida fuqarolar xukumat qarorlarini qabul qilishda bevosita va bilvosita nazorat shaklida ishtirok etadilar.

Demokratiya — faqat nazariy yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an'analari, madaniyati, ruhiyatining xususiyatlari hamdir [1; B.123.]. Demokratik jamiyatlarda saylov instituti faqat hokimiyatni shakllantirishning texnik-huquqiy mexanizmi bo'lib qolmay, balki fuqarolarning siyosiy subyekt sifatida o'zini namoyon etishi, manfaatlarni ifodalashi va davlat boshqaruvi ustidan jamoatchilik nazoratini ro'yobga chiqarishining asosiy mexanizmi bo'lishi lozim. Mazkur

jarayonning barqarorligi va sifat ko'rsatkichlari ko'p jihatdan "elektoral madaniyat" deb ataladigan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisaning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Elektoral madaniyat saylovchilarning saylov kampaniyalari davrida namoyon bo'luvchi siyosiy madaniyati, siyosiy xulq-atvori va ishtirokining o'ziga xosligidir [8; B.5.]. Elektoral madaniyat fuqarolarning o'z siyosiy huquqlarini amalga oshirish uchun saylovlarda ishtirok etishi, saylov qonunchiligiga oid huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, umuman olganda, mamlakatda o'tkazilayotgan saylovlar jarayonida siyosiy faolliklari tushuniladi. U nafaqat saylovchilarning ovoz berishdagi xatti-harakatlari, balki saylov kampaniyasi davridagi muloqot madaniyati, siyosiy raqobatni qabul qilish, manipulyativ axborotga immunitet, fuqarolik mas'uliyati va institutsional ishonchning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, saylovchilarning elektoral madaniyati rivojlanishi demokratik institutlarning samaradorligi, siyosiy tizimning legitimligi hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma barqarorligini ta'minlaydigan omil hisoblanadi.

Elektoral madaniyat tushunchasi siyosiy madaniyat nazariyalariga tayanadi. Siyosiy madaniyat jamiyatda fuqarolarning elektoral madaniyatini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, elektoral madaniyat aholining manfaat va xohish-istagini namoyon etgan holda, uning siyosiy jarayonlarda qanchalik mustaqil qaror qabul qilish va ishtirok etishdagi tayyorgarlik darajasini namoyon etadi [4; B.11.].

Elektoral madaniyatning demokratik jarayonlardagi o'rni shundaki, u formal institutlar (qonun, komissiyalar, tartib-taomillar) bilan norasmiy institutlar (qadriyatlar, odatlar, ishonch, ijtimoiy kapital) o'rtasidagi "ko'prik" vazifasini bajaradi. Demokratik tizimlar ko'pincha konstitutsion meyorlar bilan cheklanib qolmaydi, ular amaliyotda ishlashi uchun fuqarolarda qoidalarni tan olish va ularni ichki qadriyat sifatida qabul qilish zarur. Shu bois saylov qonunchiligi mukammalligi o'zi yetarli bo'lmay, saylovchilarning huquqiy ongi, tanqidiy fikrlashi, siyosiy mas'uliyati va tolerantligi kabi jihatlar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, agar qonunchilik tizimning "skeleti" bo'lsa, elektoral madaniyat uning "mushak va asab tolalari" hisoblanadi.

Demokratiyaning minimal talqini saylovlar orqali hokimiyat almashinuvi va raqobatni ta'kidlaydi, ammo zamonaviy yondashuvlar demokratik boshqaruvni kengroq ijtimoiy jarayon sifatida ko'radi. Amerikalik olim I.Shumpeter demokratiyani kim o'zdi bellashuvi bilan taqqoslab, bu bizni boshqarayotgan kishilarni biz xohlashimiz yoki xohlamasligimiz imkoniyatidir [9; B.84.] deb tariflaydi.

Har bir demokratik jamiyatda saylov taraqqiyotga kuch bag'ishlovchi, xalq suvereniteti, saylov xohish-irodasini ifodalovchi muhim voqelik, jarayondir. Ayni bir paytda u aholining katta bir qismi uchun siyosatda ishtirok etishning yagona shakli, xokimiyat organlarida turli ijtimoiy guruh manfaatlarini ximoya qiluvchi vakillar minbari bo'lib xizmat kiladi. Shuning bilan birga u mamlakat parlamenti, xukumatini saqlab qolish yoki almashtirish. ularning xalq oldidagi mas'ulligini oshirish, davlatning siyosiy kursi-yo'nalishini o'zgartirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi [9; B.85.].

Saylovlar jarayonida fuqarolar ishtirokining mazmuni "faoliyat" bilan cheklanmay, "anglangan tanlov"ga aylanganda, saylov natijalari jamiyatning real ijtimoiy-siyosiy preferensiyalarini aniqroq aks ettiradi. Elektoral madaniyatning yetukligi, demakki, demokratik legitimlikning chuqurlashuviga xizmat qilib, fuqarolar natijani qabul qilishga ko'proq moyil bo'lishi, siyosiy nizolar tinch va institutsional yo'l bilan hal etilib "yutqazgan

tomon” ham tizimni inkor etmaydi. Aksincha, elektoral madaniyat zaif bo'lgan sharoitda saylovlar ko'proq marosimiy xarakter kasb etishi, manipulyatsiya va populizmning kuchayishi, siyosiy befarqlik yoki radikal norozilikning ortishi ehtimoli kuchayadi.

Elektoral madaniyatni tushuntirishda zamonaviy siyosiy sotsiologiya va siyosiy psixologiya yutuqlari muhim. Zamonaviy yondashuvlar saylovchining xulq-atvorini nafaqat ratsional tanlov, balki chuqur ijtimoiy va psixologik mexanizmlar natijasi sifatida talqin qiladi. Siyosiy sotsiologiya saylov madaniyatini ijtimoiy tabaqalanish, guruhiiy mansublik va raqamli jamiyatdagi tarmoqli aloqalar bilan bog'lab tushuntirsa, siyosiy psixologiya shaxsning emotsional holati, kognitiv stereotiplari va siyosiy yetakchiga bo'lgan transferent munosabatlarini tahlil qiladi. Natijada, elektoral madaniyat shunchaki ovoz berish ko'nikmasi emas, balki fuqaroning axborot manipulyatsiyalariga chidamliligi, siyosiy tizimga bo'lgan ishonchi va o'z qarorlari uchun mas'uliyatni his etish darajasini ifodalovchi murakkab mental tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosat borasidagi psixologik masalalarga aralashuvning zarurati har doim bo'lmasada, ayrim paytlarda yirik islohotlar boshlanish arafasida, saylovoldi kompaniyalarida, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinish jarayonlari, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgarishi, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarda psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etishda kerak bo'ladi [5; B.17.].

Siyosiy islohotlar va saylov kampaniyalari davrida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish jamiyatning yangi liderlarni qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu psixologik ta'sir jarayonlari bevosita raqamli muhit va axborot oqimi bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Zero, zamonaviy saylovchi nafaqat an'anaviy OAV, balki ijtimoiy tarmoqlar va tezkor messenjerlar orqali qaror qabul qilar ekan, bu jarayonda media savodxonlik va kiberxavfsizlik kabi ko'nikmalar elektoral madaniyatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Demokratik jarayonlarda elektoral madaniyatning o'rni yana bir muhim yo'nalish bo'lgan siyosiy ishonchda namoyon bo'ladi. Saylov jarayoniga ishonch, saylov komissiyalarining xolisligi, nomzodlar va partiyalarning raqobat madaniyati, shaffoflik hamda hisobdorlik mexanizmlarining tushunarli ishlashi saylovchining “ovozim nimanidir o'zgartiradi” degan e'tiqodini mustahkamlaydi. Bu e'tiqod mustahkam bo'lsa, ishtirok faollashadi, siyosiy saylov kampaniyalarda fuqarolik tashabbuslari ko'payadi, siyosiy jarayonlarga doir bahslar ko'proq dalil va dasturiy takliflarga tayanadi. Fuqarolarni siyosiy faollikka ruhlantirishda ijtimoiy-siyosiy motivatsiya, ishonch, fuqarolik madaniyati va siyosiy savodxonlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlod uchun saylov jarayonini ongli, ishonchli va dolzarb deb his qilish muhitini shakllantirish zarur.

Aksincha, ishonch past bo'lsa, konspirativ fikrlash kuchayadi, saylov natijalarini inkor etish yoki delegitimatsiya qilish tendensiyalari yuzaga chiqadi, bu esa demokratik barqarorlikka putur yetkazadi. Ishonchsizlik holati ba'zida norozilik belgisi, siyosiy tanlov shakli sifatida talqin qilinadi. Siyosiy betaraflik, ishonchsizlik yoki befarqlik tufayli saylovga bormaslik, ovoz bermaslik - demokratik jamiyatda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan tanlovlardan biridir. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (128-modda) saylov huquqini kafolatlaydi [11], ammo ovoz bermaslik uchun hech qanday jazoni nazarda tutmaydi.

O'zbekiston sharoitida elektoral madaniyatning demokratik jarayonlardagi o'zni mamlakatda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning mazmuni bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda saylov qonunchiligini kodifikatsiyalash, saylov jarayonlarini yanada shaffof va standartlarga mos tashkil etish, siyosiy raqobat institutlarini rivojlantirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar saylovchilar madaniyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 2019 yilda ilk bor saylov qonunchiligini tizimlashtirgan yagona Saylov kodeksining qabul qilinishi tarqoq normalarni birlashtirib, saylov jarayonlarining yaxlit huquqiy bazasini yaratdi.

Elektoral madaniyatning shakllanishi demokratik jarayonlarning barqarorligini ta'minlash bilan birga, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va siyosiy faolligi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ishtirok bilan uyg'unlashgan holda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, jamiyat a'zolarining o'z siyosiy huquqlarini anglashi va saylov jarayonlarida ongli ishtirok etishi davlat boshqaruvining legitimligini hamda islohotlarning izchilligini kafolatlaydi. Shu bois, elektoral madaniyat shunchaki nazariy tushuncha emas, balki fuqaroning davlat bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladigan tizimli ijtimoiy xatti-harakatdir. Bu jarayonda huquqiy bilimlarning amaliyotga ko'chishi saylovchining o'z siyosiy irodasini ifoda etishdagi mas'uliyatini kuchaytiradi. YA'ni, yuqori darajadagi siyosiy ong fuqaroni passiv kuzatuvchilikdan faol ishtirokchilik sari yetaklaydi. Siyosiy ong siyosiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, kishilarning siyosiy bilimlari, e'tiqodi, yo'l-yo'riqlari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi va ular asosida shaxsning siyosiy xulqi shakllanadi [3; B.151.]. Bu esa, o'z navbatida, saylov institutiga faqatgina davriy tadbir sifatida emas, balki jamiyat hayotini sifat jihatidan o'zgartiruvchi strategik vosita sifatida qarash ko'nikmasini shakllantiradi. Aynan mana shu mas'uliyatli yondashuv asosida saylovchining siyosiy qiyofasi yangicha mazmun kasb eta boshlaydi.

Saylovchi nafaqat "ovoz beruvchi", balki siyosiy jarayonlarning doimiy ishtirokchisiga aylanganda, saylovoldi dasturlarini solishtirganda, deputatlarning faoliyatini baholaganda, jamoatchilik eshituvlari va mahalliy muhokamalarda qatnashganda, demokratik boshqaruvning sifati oshadi.

Elektoral madaniyatning demokratik jarayonlardagi ahamiyatini baholashda saylovchi xulq-atvori modellariga murojaat qilish foydali. Ko'p holatlarda saylovchi foyda va xarajatlarni solishtirib, ovoz berish yoki bermaslik haqida qaror qiladi. Bir tomondan, xalq saylov jarayonlarida faol ishtirok etadi (respublikada o'tkaziladigan saylovlarda o'rta hisobda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan mamlakat aholisining 90-92% qatnashadi), ammo, boshqa tomondan, odamlarda "aynan mening ovozim" umumiy natijada hech narsani hal qilmaydi, degan qarash ham ancha keng tarqalgan [7; B.207.].

Biroq real hayotda saylovchilarning qarorlarida identifikatsiya, qadriyatlar, emotsiyalar, ijtimoiy bosim va axborot muhitining roli sezilarli darajada kattadir. Shu bois elektoral madaniyat saylovchining "oqilona" qarorini qo'llab-quvvatlaydigan bilim va ko'nikmalarni (dasturlarni o'qish, solishtirish, faktlarni tekshirish) ham "normativ" komponentni (fuqarolik burchi, legitimlikni tan olish, mas'uliyat) ham qamrab oladi. Mazkur ikki komponentning - oqilona tanlov hamda ijtimoiy mas'uliyatning - o'zaro mutanosibligi saylovlarni demokratik transformatsiyaning samarali vositasiga aylantiradi va saylovchi tomonidan siyosiy elitani retrospektiv baholash (mukofotlash yoki jazolash) mexanizmini ishga tushiradi. Bunday

jarayon demokratiyaning fundamental asosi bo'lgan siyosiy hisobdorlikni ta'minlab, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi qayta aloqaning barqarorligini kafolatlaydi.

O'zbekistonda elektoral madaniyatni yuksaltirish demokratik jarayonlarning sifatini oshirishda bir necha yo'nalishda strategik ahamiyatga ega. Birinchidan, siyosiy raqobatning mazmunini kuchaytirish: agar saylovchi dasturiy baholashga tayyor bo'lsa, partiyalar ham real siyosiy platformalar, aniq indikatorlar va hisobdorlik mexanizmlarini taklif etishga majbur bo'ladi. Ikkinchidan, ma'muriy resurs va norasmiy bosimga nisbatan jamoatchilik immunitetini oshirish: huquqiy va elektoral savodxonlik yuqori bo'lsa, fuqarolar bosim yoki noqonuniy targ'ibotga duch kelganda shikoyat qilish, kuzatuvchi bo'lish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali jarayonni himoya qiladi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar davrida dezinformatsiya va manipulyatsiyaga qarshi chidamlilik: elektoral madaniyat media savodxonlik bilan boyitilmasa, demokratik jarayonlar axborot urushlari muhitida zaiflashadi. To'rtinchidan, siyosiy inkluzivlikni ta'minlash: demokratik jarayonlar imkon qadar keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab olishi lozim. Elektoral madaniyat ayniqsa yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat migrantlari kabi guruhlarining siyosiy ishtirokini qo'llab-quvvatlash orqali demokratiyaning vakillilik sifatini oshiradi. Inson taraqqiyoti va demokratik boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlikni yorituvchi yondashuvlar fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirish, demokratik ishtirokni ham kuchaytirishini ko'rsatadi. Shunday ekan, ta'lim sifati, raqamli infratuzilma, ochiq ma'lumotlar va jamoatchilik muloqoti kanallarining kengayishi elektoral madaniyat uchun ham "kapital" vazifasini bajaradi. Beshinchidan, legitimlik va barqarorlik: saylov natijalari qanchalik adolatli o'tsa ham, agar jamiyatda ularni tushunish va qabul qilish madaniyati yetarli bo'lmasa, siyosiy taranglik paydo bo'lishi mumkin. Elektoral madaniyat, demakki, demokratik jarayonlarning konfliktlarni boshqarish salohiyatini oshiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda islohotlar natijasida saylov tizimi va saylov jarayonlariga doir institutsional o'zgarishlar bilan bir qatorda, saylovchilarning siyosiy ongida ham ma'lum darajada o'zgarishlar kuzatildi desak adashmagan bo'lamiz. Buni biz ochiqlik siyosati, jamoatchilik muhokamalarining ko'payishi, parlament va mahalliy kengashlar faoliyati haqida axborot olish imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, davlat xizmatlari va boshqaruvda raqamlashtirish jarayonlari islohatlardan ham ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, elektoral madaniyatning demokratik jarayonlarga ijobiy ta'siri barqaror bo'lishi uchun bir qator metodologik va amaliy muammolarni hisobga olishimiz lozim. Birinchisi, "ishtirok" va "anglangan ishtirok" o'rtasidagi farq. Ishtirok ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi demokratik sifatning yagona mezonini emas, saylovchi tanlovni ongli ravishda qilmasa, siyosiy raqobatning mazmuni va hisobdorlik mexanizmi yetarlicha ishlamaydi. Ikkinchisi, "axborot ko'pligi" sharoitida ishonchli ma'lumotga erishish muammosi: saylovchi OAV ko'p axborot oladi, lekin uning sifati turlicha bo'ladi. Shu sabab, saylovoldi debatlarining mazmuni, faktlarga tayanish standartlari, jurnalistika etikasi va reklama shaffofligi elektoral madaniyatga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. 2024 yilda bo'lib o'tgan saylovlarni ko'zatuvchi xorijiy ekspertlar "OAVda saylov bilan bog'liq yangiliklar unchalik ko'p bo'lmadi va ularda fuqarolarga ongli tanlov qilishga yordam beruvchi partiya platformalari tahlil qilinmadi. Davlatga qarashli markaziy telekanallar qonun hujjatlariga muvofiq bepul e'fir vaqti ajratdi, debatlar tashkil qildi va yangiliklar ancha muvozanatli tarzda yoritildi" [10] deb dastlabki natijalar va xulosalar to'g'risidagi bayonotida aytib o'tdilar. Uchinchi muammo, siyosiy ijtimoiylashuvning institutsional tarmoqlari: maktab va oliy ta'limda fuqarolik ta'limi, mahalla va jamoat

tashkilotlarida huquqiy targ'ibot, partiyalarning yoshlar bilan ishlash tizimi qanchalik izchil bo'lsa, elektoral madaniyat ham shunchalik sifatli shakllanadi. Siyosiy ijtimoiylashuv bir tomondan qaysidir g'oya, qarash va ta'limotni «ilgari surish» yoki «yaratish»ni taklif qilsa, ikkinchi tomondan uni targ'ib qilish va «iste'mol qilish»ni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari (OAV), maktab (kollej, litsey), oliy o'quv yurtlari va boshqa shu kabi ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda davlatning, u tomonidan olib borilayotgan siyosatning roli va o'rni beqiyosdir[4; B.37.].

Elektoral madaniyatning demokratik jarayonlardagi roli saylovlarning texnologik jihatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, saylov uchastkalaridagi shaffoflik, kuzatuvchilarning institutsional maqomi, ovozlarni sanash jarayonining ochiqligi, natijalarni e'lon qilish tezligi va aniqligi, shikoyatlarni ko'rib chiqishning samaradorligi—bularning barchasi saylovchi ongida “tizim adolatli ishlayapti” degan tasavvurni shakllantiradi. Biroq bu tasavvur faqat tashkiliy choralarga emas, fuqarolarning ularni idrok etish qobiliyatiga ham bog'liq. Saylovchi jarayon qanday ishlashini bilsa, u shaffoflik elementlarini ko'ra oladi, ularni qadrlaydi va noto'g'ri talqinlardan saqlanadi. Shu bilan birga, elektoral madaniyat saylovchilar orasida siyosiy muloqot etikasini mustahkamlab, kompaniya davrida ijtimoiy bo'linishlarni kamaytiradi. Aks holda, raqobat “dasturlar raqobati” emas, “shaxslar yoki guruhlar o'rtasidagi adovat” tusini olishi mumkin. Demokratik jarayonlarda bunday holat polarizatsiyani kuchaytiradi, davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytiradi va islohotlarga ijtimoiy tayanchni zaiflashtiradi.

O'zbekistonda elektoral madaniyatning istiqbolini belgilovchi omillar ichida raqamli transformatsiya alohida o'rin tutadi. Oxirgi 10 yil ichida islohotlar natijasida saylov kampaniyasi davrida raqamli kommunikatsiyalardan oqilona foydalanish yuqori bosqichga olib chiqildi: an'anaviy uchrashuvlar, teledebatlar bilan birga onlayn platformalar, target reklama, blogerlar ta'siri kuchaydi. Bu sharoitda elektoral madaniyatning demokratik jarayonlarga ijobiy hissa qo'shishi uchun axborot shaffofligi va raqamli siyosiy reklama meyorlari juda muhimdir. Barcha darajadagi saylov komissiyalarining faoliyati, ularning saylov jarayonlari ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorligi to'liq raqamlashtirildi. Saylov kampaniyasi davomida “Elektron saylov” axborot tizimi orqali saylov komissiyalari bilan siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi qariyb 60 turdagi o'zaro hamkorlik aloqasi to'liq elektron shaklda amalga oshirilib, saylov jarayonlarida byurokratiyaga yo'l qo'yish, ortiqcha vaqt sarflash va keraksiz qog'ozbozlik holatlari kamayish imkoniyati yaratildi[6; B.137.].

Elektoral madaniyatning demokratik jarayonlardagi o'rni va ahamiyatini yakuniy baholashda, u ikki tomonlama “ta'sir tizimi” sifatida ishlashini ko'rish mumkin. Bir tomondan, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional sharoitlar—qonunchilik, saylov administratsiyasi, sud-huquq tizimi, OAV erkinligi, jamoatchilik nazorati mexanizmlari—elektoral madaniyatni shakllantiradi va unga yo'nalish beradi. Ikkinchi tomondan, saylovchilarning madaniy darajasi, talabchanligi va ongli ishtiroki institutlarni takomillashtirishga “ijtimoiy buyurtma” beradi: fuqarolar shaffoflikni talab qilsa, partiyalar dasturiy raqobatga o'tsa, OAV faktlarga tayansa, saylov boshqaruvi ham professionalizatsiyalashadi. Shu ma'noda elektoral madaniyat demokratik jarayonlarning nafaqat natijasi, balki sabab omili hamdir. O'zbekistonning demokratik taraqqiyot yo'lida elektoral madaniyatni yuksaltirish istiqboli fuqarolik ta'limini institutsionallashtirish, yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash, axborot makonida mas'uliyat va shaffoflikni

oshirish, hamda saylov jarayonlarida inklyuzivlik va hisobdorlikni kuchaytirish bilan bevosita bog'liq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, elektoral madaniyat demokratik jamiyatning shunchaki texnik elementi emas, balki davlat boshqaruvining legitimligi va barqarorligini ta'minlovchi markaziy ijtimoiy-siyosiy hodisadir. U fuqarolarning saylov jarayonlaridagi anglangan ishtiroki, siyosiy partiyalar dasturlarini tanqidiy baholash qobiliyati va axborot manipulyatsiyalariga nisbatan mafkuraviy immuniteti orqali namoyon bo'lib, huquqiy normalar va jamiyat qadriyatlarini o'rtasidagi "ko'priq" vazifasini bajaradi. O'zbekistonda aralash saylov tizimining joriy etilishi va jarayonlarning raqamlashtirilishi elektoral madaniyatni yuksaltirish uchun institutsional zamin yaratgan bo'lsa-da, uning to'laqonli ishlashi uchun tizimli fuqarolik ta'limi, siyosiy ijtimoiylashuv va jamoatchilik nazoratining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, yuksak elektoral madaniyat saylovlarni oddiy ovoz berish tadbiridan davlat va jamiyat o'rtasidagi konstruktiv muloqot hamda siyosiy hisobdorlikni ta'minlovchi strategik vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 220 b.
2. Bo'riyeva M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – 107 b.
3. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo'rayev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Baktaria press, 2015. – 151 b.
4. Jiyannuratova G. O'zbekiston yoshlarining elektoral madaniyati: Monografiya. – Toshkent: Kaleon press, 2021. – 11-37 b.
5. Maxsudova M.A., Qurbanova Z., Jumanazarov Y. Siyosiy psixologiya. – Namangan, 2007. – 17 b.
6. Olimov B. O'zbekistonda parlament saylovlari: demokratik jarayonning yangi bosqichi // International scientific journal "Interpretation and researches". – B. 137.
7. To'ychiyev B., Omonov B. Siyosiy madaniyat: Monografiya. – Toshkent: Tafsir books, 2024. – 207 b.
8. Туровский Р.Ф. Региональное измерение электорального процесса: концептуальные основы исследований // Общественные науки и современность. – 2006. – № 5. – С. 5.
9. Hojimirzayev M. Siyosatshunoslik: O'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2012. – 84-85 b.
10. Xalqaro saylovlarni kuzatish missiyasi. O'zbekistondagi Parlament saylovlari – 2024 yil 27 oktabr. Dastlabki natijalar va xulosalar to'g'risidagi bayonot URL: <https://odhr.osce.org/sites/default/files/f/documents/c/7/579400.pdf>.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL: <https://lex.uz/docs/6445145>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.